UO‘K: 616.441-073.43

QALQONSIMON BEZ KASALLIKLARIDA ULTRATOVUSH MORFOMETRIK KO‘RSATKICHLARINING NOZOLOGIK XUSUSIYATLARI

Axmedov Dilshod Bahodir o‘g‘li, Sultonova Lola Djaxonkulovna
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya. Tadqiqot qalqonsimon bezning tugunli bo‘qoq, diffuz toksik bo‘qoq va gipotireozdagi ultratovush morfometrik xususiyatlarini qiyosiy baholashga bag‘ishlangan. Jami 139 nafar bemorda bezning o‘ng va chap bo‘laklari kengligi, qalinligi, uzunligi, hajmi hamda bo‘yincha qalinligi o‘lchandi. Diffuz toksik bo‘qoqda ko‘rsatkichlarning eng yuqori, gipotireozda esa eng past qiymatlari qayd etildi. Natijalar ultratovush morfometriyasi nozologik farqlash va bemorni dinamik kuzatishda klinik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *qalqonsimon bez, ultratovush tekshiruvi, morfometriya, tugunli bo‘qoq, diffuz toksik bo‘qoq, gipotireoz.*

Dolzarbligi

Qalqonsimon bez kasalliklarida klinik va laborator tekshiruvlar muhim bo‘lsa-da, a’zodagi strukturaviy o‘zgarishlarni bevosita va noinvaziv baholashda ultratovush tekshiruvi (UTT) yetakchi o‘rin tutadi. Bez bo‘laklarining morfometrik parametrlarini standart tarzda o‘lchash patologik jarayonning yo‘nalishi va og‘irligini aniqlash, nozologik shakllarni farqlash hamda davolash samaradorligini dinamik baholash imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi

Qalqonsimon bez kasalliklarida bezning asosiy ultratovush morfometrik parametrlarini nozologik birliklar kesimida qiyosiy baholash.

Material va usullar

Tadqiqotga qalqonsimon bez kasalliklari tashxisi qo‘yilgan 139 nafar katta yoshli bemor kiritildi. Ulardan 123 nafari (88,49%) ayol va 16 nafari (11,51%) erkak bo‘lib, nozologik tarkib tugunli bo‘qoq - 62 nafar (44,61%), gipotireoz - 46 nafar (33,09%) va diffuz toksik bo‘qoq - 31 nafarni (22,30%) tashkil etdi. UTT SonoScape S22 apparatida standart ko‘ndalang va bo‘ylama proyeksiyalarda bajarildi. Har bir bemorda o‘ng va chap bo‘lak kengligi, qalinligi, uzunligi va hajmi, shuningdek, bo‘yincha qalinligi o‘lchandi. Ma’lumotlar IBM SPSS Statistics 26 dasturida

qayta ishlandi; natijalar M±m ko‘rinishida ifodalandi, $p<0,05$ statistik ahamiyat mezoni sifatida qabul qilindi. Tadqiqot Xelsinki deklaratsiyasi tamoyillariga muvofiq olib borildi.

Natijalar va muhokama

Bemorlarning umumiy guruhida qalqonsimon bezning o‘ng va chap bo‘laklari kengligi mos ravishda 18,46±0,36 va 17,87±0,35 mm, qalinligi 22,61±0,42 va 22,05±0,42 mm, uzunligi 42,81±0,81 va 42,86±0,80 mm, hajmi esa 10,27±0,47 va 9,78±0,45 sm³ ni tashkil etdi. Kenglik, uzunlik va hajm qabul qilingan referens chegaralarda bo‘lganiga qaramay, qalinlik ko‘rsatkichi 10-15 mm referens oralig‘idan yuqori bo‘ldi. Bu holat bez qalinligini strukturaviy o‘zgarishlarning sezgir morfometrik belgisi sifatida alohida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

1-jadval. Qalqonsimon bez UTT parametrlarining nozologiyalar bo‘yicha qiyosiy ko‘rsatkichlari (M±m)

Guruh	Kenglik, mm	Qalinlik, mm	Uzunlik, mm	Hajm, sm³
Umumiy guruh, n=139	18,46 / 17,87	22,61 / 22,05	42,81 / 42,86	10,27 / 9,78
Tugunli bo‘qoq, n=62	20,22 / 19,97	24,19 / 24,31	47,00 / 47,36	12,01 / 12,13
Diffuz toksik bo‘qoq, n=31	21,35 / 20,65	26,45 / 25,58	49,35 / 49,18	14,53 / 13,52
Gipotireoz, n=46	14,73 / 13,98	18,23 / 17,42	34,23 / 34,09	5,42 / 4,89

Izoh: kasr ko‘rinishidagi qiymatlar mos ravishda o‘ng/chap bo‘lak natijalarini bildiradi.

Nozologiyalar kesimida eng yuqori morfometrik qiymatlar diffuz toksik bo‘qoqda aniqlandi: o‘ng va chap bo‘lak qalinligi mos ravishda 26,45±0,29 va 25,58±0,27 mm, uzunligi 49,35±0,33 va 49,18±0,33 mm, hajmi 14,53±0,32 va 13,52±0,28 sm³ bo‘ldi. Tugunli bo‘qoqda ham barcha asosiy parametrlar umumiy guruh qiymatlaridan yuqori bo‘lib, ularning o‘zgarish yo‘nalishi diffuz toksik bo‘qoqqa o‘xshash edi, biroq intensivligi nisbatan past kuzatildi.

Gipotireozda qarama-qarshi morfometrik profil kuzatildi. O‘ng va chap bo‘laklarning kengligi 14,73±0,49 va 13,98±0,48 mm, qalinligi 18,23±0,58 va 17,42±0,56 mm, uzunligi

34,23±0,14 va 34,09±0,26 mm, hajmi 5,42±0,65 va 4,89±0,61 sm³ ni tashkil etdi. Nozologiyalararo farqlarning asosiy qismi statistik ahamiyatli bo‘lib ($p<0,05$), ayniqsa bez hajmi bo‘yicha gipotireoz va boshqa guruhlar o‘rtasidagi tafovut yaqqol namoyon bo‘ldi.

Bo‘yincha qalinligi umumiy guruhda 4,04±0,16 mm, tugunli bo‘qoqda 4,81±0,60 mm, diffuz toksik bo‘qoqda 4,86±0,14 mm va gipotireozda 2,78±0,26 mm bo‘ldi. Demak, bez bo‘laklari morfometriyasi bilan bir qatorda bo‘yincha qalinligini o‘lchash ham nozologik differensial tashxis uchun qo‘shimcha axborot beradi.

Xulosa

1. Qalqonsimon bezning kengligi, qalinligi, uzunligi va hajmi nozologik shaklga bog‘liq ravishda o‘zgaradi; diffuz toksik bo‘qoqda kattalashish, gipotireozda esa kamayish ustunlik qiladi.

2. Bez qalinligi umumiy guruhda referens chegaradan yuqori bo‘lib, strukturaviy o‘zgarishlarni aniqlashda alohida diagnostik ahamiyatga ega.

3. UTT protokoliga har ikki bo‘lakning to‘liq morfometriyasi va bo‘yincha qalinligini majburiy kiritish nozologik farqlash hamda dinamik kuzatuvning axborotliligini oshiradi.